


To'rtko'l tumanida ham g'alla o'rim-yig'imi boshlandi

Qoraqalpog'istonning bir qancha tumanlari qatorida To'rtko'l tumanida ham g'alla o'rim-yig'imi boshlandi. Tumanda joriy yilda 3800 hektar er maydonida bug'doy hosili etishtirilib shundan 316,7 hektar er maydonida urug'lik etishtirildi. O'rim-yig'im ishlarida 14 ta g'alla o'rish kombaynlari hamda mexanizatorlar guruhlari faoliyat yuritmoqdalar. Joriy yilgi mavsumda tumanda 14 ta otryad shakllantirilgan bo'lib, g'allani manzilga etkazishda 42 ta texnikalar jalb qilindi.

Image not found or type unknown



Joriy yilda tumanda XIX asr oxirida yaratilgan yangi bug'doy navi ham ekildi. Krasnodardagi oliygohdan olib kelingan bug'doyning ushbu navining bo'yisi 170-180 sm bo'lib, asosan chorvachilikka mo'ljallangan. Sovuq havoga, o'simliklarda uchraydigan har-xil kasalliklarga chidamli ushbu Tritikale navi jami 5,7 hektar maydonga ekilgan bo'lib, g'alladan yuqori hosildorlik kutilmoqda. Mutasaddilar va soha vakillari bug'doy dalalarini ko'zdan kechirib, g'alla hosildorligi bo'yicha o'zlarining fikr mulohazalarini bildirdilar.. Ko'rgazmali seminar yakunida davlatga g'alla topshirish rejasini birinchilar qatorida ko'rsatdi. "Xoji Abdulla-Akbar" fermer xo'jaligi raisiga qimmatbaho sovg'a taqdim qilindi.

Image not found or type unknown



-Joriy qishloq xo'jaligi yilida 12,7 hektar maydonga g'alla urug'ini qadagan edik. Agrotexnika qoidalarini yaxshi olib borilishi natijasida 80 tsentnerdan, o'rtacha 60 tsentnerdan hosil olishni va belgilangan rejani ortig'i bilan bajarishni rejalashtirganimiz, deydi "Chorvador" fermer xo'jaligi raisi I.Serjanov.

Image not found or type unknown



To'rtko'l tumani hokimligi Matbuot xizmati